

**PEDAGOGIKA OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI  
BOSHQARISHNING FUNKSIONAL TAVSIFI**

Ablaeva O'g'iloy Shodiqulovna

Jizzax politexnika instituti,  
"BvalQ" kafedrasi, katta o'qituvchisi  
[sagatov\\_b88@mail.ru](mailto:sagatov_b88@mail.ru)

Erbutayev Sherzod Ruslan o'g'li  
Jizzax politexnika instituti,  
"BvalQ" kafedrasi, magstri

**Annotatsiya:** ushu maqola oliv ta'lif muassasalarida pedagogik kadrlarni tayyorlashni takomillashtirishning ayrim masalalariga bag'ishlangan.

**Tayanch iboralar:** Yalpi sifat menejmenti, ta'lif sifati, ta'lif sifatini boshqarish, sifatni boshqarish strategiyasi.

Jahonda qabul qilingan zamonaviy ta'lif konsepsiyasida ta'lif tizimini boshqarish, ta'lif sifatini baholash jarayoni va vositalari hamda texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb vazifa etib belgilandi. Oliy ta'lif tizimida ta'lifning internatsionallashuvi, talabalarning xalqaro mobilligi, ta'lif dasturlarining tez o'zgaruvchanligi bilan bog'liq global tendensiyalari hamda ta'lif sifatini zamonaviy boshqarish texnologiyalarini joriy etish orqali ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. Pedagogika oliv ta'lif muassasalarida bo'lajak mutaxassislarining intellektual va kasbiy salohiyatiga nisbatan qo'yilayotgan yuqori talablar doirasida kadrlar tayyorlash sifatini boshqarish tizimi takomillashtirilmoqda.

Ta'lif sifatini boshqarish jarayonining asosiy funksiyalaridan biri bu strategik rejallashtirish funksiyasidir («kelajakni ko'ra bilish» (N. Tornberri, P. Senge, X. Vissema va boshqalar). Aynan ushu funksiya oliv ta'lif muassasasining rivojlanish yo'nalishini belgilab olish imkonini yaratadi.

Pedagogika oliv ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini boshqarish ichki tizimiga xos bo'lgan funksiyalar tizimi quydagilardan iborat: axborot-tahliliy, tashkiliy-texnologik, nazorat-diagnostik, korreksion, normativ, integrativ, boshqaruv, faollashtiruvchi va kadrlarni boshqarish (1-jadval).


1- jadval

**Ta'lif sifatini boshqarishning funksional tavsifi**

Funksiyalar bloki	Asosiy mazmuni	Natija
Loyihalash-maqsadli blok (maqsadni aniqlash, normalashtirish, standartlashtirish, dasturlash, rejallashtirish, oldindan aytib berish)	Bo'lajak o'qituvchi modelini shakllantirish, standartlarni ishlab chiqish va takomillashtirish. Ta'lif sifatini boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqish. Sifat tizimini ishlab chiqish (modellari, sifatni ta'minlash reja va dasturlari). Ta'lif jarayonining turli komponentlari uchun sifat normalarini ishlab chiqish.	Bo'lajak o'qituvchi modeli, standartning mutaxassislarga nisbatan talablari. Sifatni boshqarish konsepsiysi. Sifat tizimi modeli, sifatni boshqarish bo'yicha dastur va reja. Alohida komponentlar sifat normalari



Lobachevsky  
University



<p>Tashkiliy-amalga oshirishga oid (tashkil etish, muvofiqlashtirish, ta'minlash, korreksiyalash)</p>	<p>Ta'lim sifatini boshqarishning tashkiliy modelini amalga oshirish. Sifatga yo'naltirilgan pedagogik ta'limni tashkil etish. Ta'lim sifatini boshqarish tizimi komponentlarini zaruriy resurslar bilan ta'minlash (kadrlar, normativ, informatsion, kommunikatsion, moddiy-texnik). Ta'lim sifatini monitoring qilish, o'quv jarayoni, ta'lim standartlari, fan dasturlari va boshqa o'quv-uslubiy hujjatlarni takomillashtirish.</p>	<p>Ta'lim sifatini boshqarish tizimining pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini ta'minlash bo'yicha faoliyati</p>
<p>Nazorat-baholash (nazorat, tekshirish, baholash, natijalarini tahlil qilish)</p>	<p>Mutaxassis sifatini diagnostika qilish. Pedagogik ta'lim sifatini tahlil qilish va baholash. Sifat standartlari va normalarini baholash. Pedagogik ta'lim sifatini boshqarish tizimini baholash.</p>	<p>Ta'lim sifatining aniq natijalari, DTS talablarining bajarilishi, iste'molchilar ehtiyojlarining qondirilishi.</p>

*Axborot-tahlil funksiyasi* pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati to'g'risida ob'ektiv ma'lumotlar olish, ularni tahlil etish, aniqlangan muammolarni bartaraf etish imkoniyatlari hamda yo'llarini aniqlash imkoniyatini beradi. Axborot-tahliliy hujjatlar va

tahlil metodlari sifati ham muhim rol o'ynaydi. Axborot-tahlil faoliyati quyidagi talablarga javob berishi zarur:

- tahlilning ob'ektivligi va operativligi;
- axborotning to'liqligi va aniqligi;
- baholash mezonlarining mavjudligi;
- axborot oqimlarining yig'ilishini tashkil qilish.

Ushbu talablardan kelib chiqib, quyidagilarni ishlab chiqish tavsiya etiladi:  
o'z ichiga sifat etalonlari, mezon va ko'rsatkichlarini qamrab oluvchi talabalarni tayyorlash sifatini tahlil qilish metodikasi;

bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash mazmuni va maqsadi sifatini tahlil qilish va baholash metodikasi;

- o'qitish texnologiyalari sifatini tahlil qilish metodikasi;
- ta'lim sifatini takomillashtirish metodikasi.

*Motivatsion-maqsadli funksiyasi* kasbiy ta'lim sifatini boshqarishda yangi maqsadlarning qo'yilishini, boshqaruv sub'ektlari tomonidan ta'lim sifatini ta'minlash va oshirish maqsadida motivlashtirish va rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirilishini nazarda tutadi.

*Rejalashtirish funksiyasi* ta'lim sifatiniboshqarish maqsadlarini amalga oshirish dasturlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Rejalashtirish quyidagi talablar asosida amalga oshiriladi: maqsad va amalga oshirish shart-sharoitlarining birligi; uzoq muddatli va qisqa muddatli rejalarining birligi; rejalarining kompleksliligi; rejalarining barqarorligi va moslashuvchanligi.

*Tashkiliy-ijro funksiyasi* boshqarishning uzluksizligi va yaxlitligini ta'minlaydi hamda sifatni boshqarish maqsadlari va rejalarining amalga oshirilishini ta'minlaydi.



TIIAME

Lobachevsky  
University

 Новосибирский  
Государственный  
Университет  
настоящая наука



 МФТИ

*Nazorat-diagnostik funksiyasi* oliy ta'lim muassasasi fakultet, kafedra, professor-o'qituvchi va talabalar tizimida sifatning oraliq va yakuniy natijalari holatini nazorat va diagnostika qilishga yo'naltirilgan. Monitoring barcha parametlar yoki tanlangan parametlar bo'yicha doimiy nazoratni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

*Muvofiqlashtirish-korreksiyalash funksiyasi* tizimlar va tizim osti elementlarda chetlanishlarni aniqlash va operativ o'zgartirishlar kiritish, korreksiyalashga qaratilgan.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish ta'lim mazmuni, faoliyat jarayonlari, tashkiliy tuzilmalarni samarali o'zgartirish bo'yicha harakatlar, metodlar va vositalar majmuasidir.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini strategik boshqarishning asosiy g'oyasi rahbariyat tomonidan oliy ta'lim muassasasi barcha xodimlarini ta'lim sifatini ta'minlash jarayoniga jalb qilish hamda yangi yondashuvlarni joriy etish javobgarligini o'z zimmasiga olishidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. – T.: «Voris-Nashriyot» nashriyoti, 2006. – 263 b.
2. Нуждин В.Н, Кадамцева Г.Г. Стратегическое управление качеством образования //Высшее образование сегодня, 2003. -№4, с.6-13; №5, с.2-11.
3. Mirsolieva M.T. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. – Toshkent, Fan va texnologiya, 2019. – 135 b.
4. Yuldashev M. Ta'lim sifati menejmentining tashqi va ichki nazorat mexanizmlari // Ilm hyem jamiyat. - Nukus.: 2016. - № 1. -B.89- 91
5. Quality Procedures in European Higher Education. European Network for Quality Assurance. <http://www.enqa.net/texts/procedures.pdf>



LORACHEVSKY  
UNIVERSITY

